

QASDDAN BADANGA SHIKAST YETKAZISH JINOYATLARIGA QARSHI KURASH CHORALARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Boymurotov Firdavs Nekmurod o‘g‘li

IIV Akademiyasi 2-o‘quv kursi,

218 guruh kursanti.

Annotatsiya. *Qasddan badanga shikast yetkazish orqali sodir etiladigan jinoyatlariga qarshi kurashish va uning profilaktikasi tushunchasi va ahamiyati, ushbu yo‘nalishda bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlar hamda profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan chora-tadbirlar doirasidagi muammolar va ularni barataraf etish yo‘nalishlariga oid ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, qo‘rqitish, ruhiy ta’sir, jismoniy zo‘rlik ishlatish, himoyalani choralari.*

So‘nggi paytlarda jamiyat tinchligi va barqarorligini asrab avaylash osoyishtalikni ta‘minlash, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatlarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo‘lib, unda ichki ishlar organlari muhim o‘rin egallaydi. O‘tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo‘g‘inini rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta‘minlash, yurtimizda jinoyatchilikning o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonini berdi.

Respublikamizda olib borilayotgan jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatida huquqbuzarliklar profilaktikasining o‘rni va roli sezilarli darajada oshdi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyat mazmuni butunlay o‘zgardi. Hususan mamlakatimizda «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot



tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini, jumladan «Temir daftar», «Yoshlar daftari» va «Ayollar daftari»ni «Ijtimoiy himoya yagona reestri»larini yaratish yo'lga qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit normativ-huquqiy baza shakllandi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq-tartibot mustahkamlanib, kriminogen vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tashkil etish uslublarini tubdan o'zgartirish, qonun buzilishi holatlarini fosh etish va choralar ko'rish emas, balki mazkur holatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta'minlashni ushbu idoralarning eng asosiy vazifasiga aylantirish, huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarining samarali tizimini joriy etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qasddan badanga shikast yetkazish orqali sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasining maqsadi, vazifalari, sub'ektlari, ob'ektlarini aniq va to'liq belgilash imkonini beradigan nazariy asoslar bo'lib xizmat qiladigan tushunchalarni ilmiy muomalaga kiritish zarurati vujudga kelgan. Mazkur tushunchalarning huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasiga kiritilishi va amaldagi qonunlarda mustahkamlanishi kelajakda qasddan badanga shikast yetkazish orqali sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ hamda muassasalarga bu sohada chora-tadbirlarni aniq va manzilli belgilash hamda ular faoliyati yo'naltiriladigan ob'ektlarni to'liq qamrab olish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, bolalar va o'smirlarni shafqatsizlikdan asrash, ularga qarshi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish o'ta muhim, ijtimoiy ahamiyatga ega va dolzarb vazifa bo'lib, uning yechimi fanlararo xususiyatga ega. Zo'ravonlik holatlariga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarga huquqni muhofaza qilish tizimi, vasiylik va homiylik organlari xodimlari, ijtimoiy-pedagogik soha vakillari, tibbiy-psixologik xizmat xodimlari jalb etilishi kerak. Biroq, ko'pincha bolalarga nisbatan qo'rqitishning oldini olish va bostirish, zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish bo'yicha harakatlar to'siqlar bilan to'sqinlik qiladi, jumladan:

- profilaktika ishlarini tashkil etishda yagona uslubiy va tizimli yondashuvlarning yo'qligi;



- yosh avlod va oila bilan ishlashda profilaktika chora-tadbirlarga nisbatan e'tiborning sustligi;

- malakali yuridik yordam olish uchun murojaat qilish imkonini bermaydigan qonunchilik normalarining yo'qligi, past moddiy daromadlar;

- pedagogik, ijtimoiy, tibbiyot xodimlarida jabrlanuvchi bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishning yo'qligi, ayniqsa kattalarning shaxsiy manfaatlari yo'qligi;

- samarali va maqsadga muvofiq tashkil etilgan reabilitatsiya markazlarining kamligi.

Qasddan badanga shikast yetkazish orqali sodir etiladigan jinoyatlar doirasi keng va xilma-xilligidan kelib chiqib, voyaga yetmaganlar va ayollarga nisbatan sodir etiladigan ruhiy zo'ravonlikni:

a) shaxsning hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar (qasddan odam o'ldirish; onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishi; kuchli ruhiy hayajonlanish holatida, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish);

b) shaxsning sog'lig'i va hayoti uchun xavfli bo'lgan jinoyatlar (qasddan badanga og'ir shikast yetkazish; sog'liqqa o'rtacha og'ir shikast yetkazish; qasddan badanga yengil shikast yetkazish; do'pposlash, qiynash, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish; o'ldirish bilan qo'rqitish; insonning tana a'zolarini transplantatsiya qilish, tanosil kasalligi OIV/ OITSni tarqatish; ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash, xavf ostida qoldirish);

v) shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar (insonning sha'ni, qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar; odam o'g'irlash; g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish). Bu qilmishlarda ham zo'rlik ishlatiladi. Biroq bunda iqtisodiy manfaatlar birinchi o'rinda turadi;

g) zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar (nomusga tegish, jinsiy yehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish) kabi guruhlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

Qasddan badanga shikast yetkazish orqali sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

Qasddan badanga shikast yetkazish orqali sodir etiladigan jinoyatlarning yanada kuchayishini to'xtatish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi choralar ko'rishi mumkin:



- kelajakdagi ota-onalarni zo‘ravonliksiz pedagogika usullariga o‘rgatish va muhtoj oilalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish;

- jamoatchilik fikriga ta‘sir o‘tkazish va ota-onalarning stereotiplarini o‘zgartirish uchun bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosini ommaviy axborot vositalarida tizimli yoritish;

- jabrlanuvchilarning shaxsiy murojaati bo‘yicha huquq va manfaatlarini himoya qilishning samarali tartibi va real mexanizmini ishlab chiqish;

- qasddan badanga shikast yetkazish orqali sodir etiladigan jinoyatlarning jabrlanuvchilariga, shu jumladan, ular shaxsan murojaat qilganda, tezkor yordam ko‘rsatish uchun "ishonch telefonlari" ni keng ochish;

- jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha sog‘liqni saqlash muassasalari, ta‘lim, ichki ishlar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining o‘zaro hamkorligi tizimini yaratish;

- ta‘lim muassasalarida xavfsiz ta‘lim muhitini shakllantirish, shu jumladan o‘qituvchilarni kasbiy va shaxsiy qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishga undash;

- ta‘lim tizimiga profilaktika va tuzatish dasturlarini faol joriy etish, ularni amalga oshirishda eng yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mavjud munosabatlar tizimini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan yoshlar va kattalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga qaratilgan psixologik treninglar.

Oilada, maktabda, mehnat jamoalarida, mahallada olib boriladigan axloqiy-tarbiya, jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, ruxoniylarning obro‘-e‘tibori hamma-hammasi odamlarda qonunning buzilishi bilan bog‘lik har qanday xatti-harakatlarga nisbatan barqaror qarshilik shakllanishiga qaratilmog‘i lozim.

Ushbu vazifalarni bajarishda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari alohida o‘ringa ega. Profilaktika inspektorlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatlarning oldini olish ularni sabab va sharoitlarini aniqlash bo‘yicha katta hajmdagi va ko‘p qirrali faoliyatni amalga oshiruvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ham sud-huquq tizimi bilan bir qatorda jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta‘minlovchi ichki ishlar organlari tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo‘lib, unda profilaktika inspektorlari muhim o‘rin egallaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda
«Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi
muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga
qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

2. Tashtemirov A., Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini
amalga oshirishda iolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan
hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslari //О б щ е с т в е н н ы е н а у к
и в с о в р е м е н н о м м и р е : т е о р е т и ч е с к и е и п р а к
т и ч е с к и е и с с л е д о в а н и я . - 2024. - Т . 3. - №.. Maxsus son
12. - С . 50-53.

3. Tashtemirov A., Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash
manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining
tushunchasi //О б щ е с т в е н н ы е н а у к и в с о в р е м е н н о м
м и р е : т е о р е т и ч е с к и е и п р а к т и ч е с к и е и с с л е
д о в а н и я . - 2024. - Т . 3. - №.. Maxsus son 12. - С . 62-67.

4. Т а ш т е м и р о в А . А . и д р . З ў р а в о н л и к б и л а н
б оғлиқ ҳуқуқбuzарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги
//Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.

5. Мирсалихова Г. А., Баходиров А. А. Ў. Озодликдан
махрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазо т и з и м и н и н г ҳуқуқий ва
ташкилий аҳамияти //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and
Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 104-108.

Xatamova D. M. O'RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA
ISHLATILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т.
1. – №. 12. – С. 498-501.

Xatamova, D. M. "O'RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA
ISHLATILISHI." Новости образования: исследование в XXI веке 1.12 (2023):
498-501.

Xatamova, D. M. (2023). O'RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA
ISHLATILISHI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(12), 498-
501.

Jamolov R. Q., Xatamova D. M., Xolmatova M. A. Asalning tasnifi va
kimyoviy tarkibi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and
social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 1031-1036.



Jamolov, R. Q., D. M. Xatamova, and M. A. Xolmatova. "Asalning tasnifi va kimyoviy tarkibi." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.11 (2022): 1031-1036.

Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., & Xolmatova, M. A. (2022). *Asalning tasnifi va kimyoviy tarkibi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 1031-1036.

Xatamova, D. M., Burxanova, M. U., & Muxtorova, N. I. (2025). *MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASIDAGI YONAKI GURUH ELEMENTLARINI O 'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR.*

Xatamova, D. M., M. U. Burxanova, and N. I. Muxtorova. "MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASIDAGI YONAKI GURUH ELEMENTLARINI O 'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR." (2025): 199-200.

Xatamova D. M., Burxanova M. U., Muxtorova N. I. *MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASIDAGI YONAKI GURUH ELEMENTLARINI O 'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR.* – 2025.

Xatamova D. M. *O'RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA ISHLATILISHI* //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 498-501.

Xatamova, D. M. "O'RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA ISHLATILISHI." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.12 (2023): 498-501.

Xatamova, D. M. (2023). *O'RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA ISHLATILISHI.* *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(12), 498-501.

Jamolov R. Q., Xatamova D. M., Xolmatova M. A. *Asalning tasnifi va kimyoviy tarkibi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.* – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 1031-1036.

Jamolov, R. Q., D. M. Xatamova, and M. A. Xolmatova. "Asalning tasnifi va kimyoviy tarkibi." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.11 (2022): 1031-1036.

Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., & Xolmatova, M. A. (2022). *Asalning tasnifi va kimyoviy tarkibi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 1031-1036.

Xatamova, D. M., Burxanova, M. U., & Muxtorova, N. I. (2025). *MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASIDAGI YONAKI GURUH ELEMENTLARINI O 'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR.*

Xatamova, D. M., M. U. Burxanova, and N. I. Muxtorova. "MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASIDAGI YONAKI GURUH ELEMENTLARINI O 'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR." (2025): 199-200.



Xatamova D. M., Burxanova M. U., Muxtorova N. I. MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASIDAGI YONAKI GURUH ELEMENTLARINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR. – 2025.

Xatamova D. M., Muxtorova N. I., Abduvoxidova N. A. SUBXONI VA SUPXONI O‘RIK NAVLARINI QIYOSLASH //IMRAS. – 2025. – T. 8. – №. 6. – C. 268-273.

Xatamova, D. M., N. I. Muxtorova, and N. A. Abduvoxidova. "SUBXONI VA SUPXONI O‘RIK NAVLARINI QIYOSLASH." IMRAS 8.6 (2025): 268-273.

Xatamova, D. M., Muxtorova, N. I., & Abduvoxidova, N. A. (2025). SUBXONI VA SUPXONI O‘RIK NAVLARINI QIYOSLASH. IMRAS, 8(6), 268-273.

